

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARINI SOG'LOMLASHTIRISHDA SOG'LOM OVQATLANTIRISHNING O'RNI

Husenova Gulruxsor Norpulat qizi

Navoiy viloyati Navoiy shahridagi 17- sonli DMTT direktori

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarini sog'lomlashtirishda sog'loq ovqatlanish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan bo'lib bu ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek bolalarini sog'loq ovqatlanirishda maktabgacha ta'lism tashkilotlarida yuzaga kelayotgan muammolarning yechimi bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Autsorsing, keytiring, sog'lomlashtirish, sog'loq ovqatlanirish, tarbiyalanuvchi.

Annotation: In the article, suggestions and recommendations on healthy eating for the health of children of preschool age are given, and this is analyzed from a scientific theoretical point of view. Also, practical suggestions on the solution of the problems arising in preschool educational organizations in healthy feeding of children have been put forward.

Key words: Outsourcing, import, health, healthy eating, foster.

Hozirgi kunda ta'lism-tarbiyaga birinchi darajali ahamiyat berilishining boisi – iymoni, e'tiqodli va axloqiy fazilatlari, milliy mas'uliyat tuyg'usi qalbida chuqur ildiz otgan, ma'naviy barkamol fuqarolarga ega mamlakatgina mustaqil va barqaror rivojiana oladi. Buyuk kelajak ma'naviy barkamol insonlarga tayangandagina yaratiladi, qad ko'taradi. Boshqacha aytganda ma'naviy barkamol insonlargina buyuk kelajakni yarata oladilar.

Shuning uchun mustaqillikning ilk yillardan boshlab yoshlarni har tomonlama barkamol avlod etib tarbiyalash davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilab olindi.

Aytish joiz, O'zbekiston Respublikasining «Ahollining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 noyabrdagi PQ-4887-son «Ahollining sog'loq ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi va 2021 yil 25 maydagi PQ-5124-son «Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundagi 407-son «Davlat maktabgacha ta'lism tashkilotlarida sog'loq ovqatlanirish tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlarito'g'risida»gi qaroriga muvofiq maktabgacha ta'lism tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarining xavfsiz va sog'loq ovqatlanishini tashkil etish, yuqumli va yuqumli bo'limgan kasalliklar profilaktikasi hamda ovqatdan zaharlanishlarning oldini olish choralarini belgilandi.

Maktabgacha ta'lism tizimi tashkil qilingandan buyon maktabgacha ta'lism tashkilotlarida sog'loq va xavfsiz ovqatlanirishni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga doir masalalar yuzasidan seminar-trening tashkil etilmoqda. Seminarlarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Fan, ta'lism, madaniyat va sport masalalari Komitetining 2023 yil 5 iyundagi tegishli qarorida belgilangan vazifalarning bajarilishini ta'minlash va "Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida sog'loq va xavfsiz ovqatlanirishni tashkil etish" bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalari yuzasidan bir qancha masalalar muhokama qilinib kelinmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 25 iyuldagagi "Davlat maktabgacha ta'lism muassasalarida sog'loq ovqatlanirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi tegishli qarori va 2021 yil 30 iyundagi "Davlat maktabgacha ta'lism tashkilotlarida sog'loq ovqatlanirish tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari asosida MTTlarda sog'loq ovqatlanirishni tashkil etish, tarbiyalanuvchilarning sog'loq va barkamol o'sishini ta'minlash, oshxonalarda sifatli taomlar tayyorlash uchun gigienik talablarga muvofiq sharoitlar

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

yaratishga alohida e'tibor qaratish kerakligi bo'yicha chora-tadbirlar rejasি ishlab chiqilib amalga oshirib kelinmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarga sarflanadigan oziq-ovqat mahsulotlarining kunlik miqdori sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlari asosida belgilanishi talab etilishi, tarbiyalanuvchilar uchun taomlar sanitariya-gigiena me'yorlari va normativlari hamda ovqatlanish texnologiyasi qoidalariga amal qilgan holda tayyorlash, saqlash tartibi to'g'risida doimiy ravishda tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi hamda tegishli tashkilotlar tomonidan nazorat qilib borilmoqda.

Albatta farzandlarimizni sog'lom bo'lib o'sishida nafaqat sog'lom ovqatlanishi balki yoz faslida yozgi sog'lomlashtirish dam olish maskanlari ham vazifasini o'tasa, u yerda o'tkaziladigan va olib boriladigan har bir ish bola dunyoqarashini boyitish, ijodiy qobiliyatini shakllantirish, uning har tomonlama ma'naviy kamol topishiga yordam beruvchi asosiy tarbiya manbai bo'lib xizmat qilishi kerak. Buning uchun esa oromgohda faoliyat ko'rsatayotgan barcha tarbiyachi va yetakchilar yoz davomida o'z mahoratlarini to'la namoyon etib, bola shaxsiga yaqindan yondoshishlari, undagi insoniylik va ijobiy xislatlarni shakllantirishga turki bo'luvchi qiziqrarli ishlar majmuasini tashkil etishlari lozim.

Bolalar va o'smirlarning yozgi sog'lomlashtirish davri muayyan aniq belgilangan muddat va sharoitda o'tkazilib, ta'lim tizimining bir qismi bo'lmog'i va ma'naviy-ma'rifiy tarbiya izchilligini ta'minlashi lozim.

Bu davrning o'ziga xosligi – barcha bolalarning erkin ravishda o'z qobiliyatlarini to'liq namoyon etishlari uchun katta imkoniyat yaratishi hamda o'quv yili davomida o'quv yuklamalarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan jismoniy, aqliy va ruhiy-emotsional zo'riqishlarni bartaraf qilish, bolalarning yangi o'quv yiliga lozim bo'lgan tayyorgarlik bilan kelishlarini ta'minlashi bilan xarakterlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning sog'lom o'sishi va mavjud muammolarga qaramasdan jismonan, ma'nан, aqliy va axloqiy jihatdan komil inson bo'lib yetishini ta'minlash maqsadida bolalar sog'ligini asrash, avaylash, mustahkamlash asosida ta'lim tarbiya jarayoniga yangicha yondashish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

2022 yildan boshlab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigienik talablar" 0016-21-son SanQvaMga qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflar ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatiga kiritildi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2022-yil 14-maydagи 08-1247-sonli topshirig'iga hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2022-yil 16-maydagи 142-x-sonli buyrug'iga asosan, 2022 yilning 17-31-may kunlari hududlardagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ovqatlantirish tizimi tahliliy va kompleks tarzda Samarcand, Namangan, Toshkent, Andijon va Sirdaryo viloyatlarida monitoring o'tkazildi. Natijada juda ko'p maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar uchun tavsiya qilinayotgan menyudagi ovqatlanish bola hayotini va uning sog'ligi yuqori darajada sog'lom ta'minlay oladigan kaloriyali, vitaminli ovqatlanish tizimi talab darajasida emasligi ko'rinib qoldi. Ayni shu sababdan hozirgi kunga kelib juda ko'p DMTTlari autsorsing tizimiga o'tkazilib u yerda sog'lom ovqatlantirishni eng ilg'or texnologiyalar va professional oshpazlarni jalb qilgan holda amalga oshirish vazifalari qo'yildi va bu vazifani bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda.

Shuningdek tarbiyalanuvchilarining sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish ishlarini yanada takomillashtirish, belgilangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga muvofiq holda ovqatlantirishni tashkil etish orqali bolalarning sog'lom va barkamol o'sishini ta'minlash, sog'lom ovqatlantirishning zamonaviy usullarini joriy etgan holda ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida 2022 yilning

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

aprel oyidan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'1 tumanidagi 6 ta davlat maktabgacha tashkilotlarida tajriba-sinov tariqasida "Keytering" asosida sog'lom ovqatlantirish tashkil etildi. Buning samarasini tajriba-sinovlarda ko'rish jarayonida bizning hududimizda "qish" faslidan boshqa fasllarda "Keytering" asosida sog'lom ovqatlantirish tashkil etish bir qancha noqulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Nimagaki serquyosh iqlim sharoitida ovqatlarni toza va mazali tayyorlash ustivor ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar natijasida tarbiyalanuvchilarga sog'lom va toza ekologik qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan ovqat tayyorlashga alohida e'tibor berish kerakligi ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari autsorserlarni tanlab olish tasdiqlangan tartib asosida amalga oshiriladi va autsorserlarga quyidagi umumiyl talablar qo'yiladi:

- umumiyl ovqatlanish xizmatida kamida bir yillik tajribaga ega bo'lishi;

- autsorsing xizmatlari bo'yicha kamida ikki oylik shartnomma summasiga teng aylanma mablag'larining mavjudligi;

- tanlovda (tenderda) qatnashish uchun ariza berilgan kundan kamida bir oy oldin tegishli tashkilotlardan soliq qarzdorligi, to'lovlar, boshqa majburiy to'lovlar va moliyaviy sanksiyalarning mavjud emasligi;

- to'g'ri ovqatlanishni tashkil etish yuzasidan taomlar tayyorlash texnologiyasi bo'yicha kamida 2 yillik ish tajribasiga ega bo'lgan malakali mutaxassislar (muhandis-texnolog, dietolog, oshpazlar) malaka razryadlari ko'rsatishi;

- maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan belgilangan texnik vazifalar asosida autsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish loyihasini individual reja asosida ishlab chiqib, taqdimotini (imkoniyatdan kelib chiqib, tayyor taomlarini ham ko'rsatishi mumkin) o'tkazishi;

- taqdimotda tarbiyalanuvchilarni yoshi, jinsi, fiziologik holati bo'yicha turli guruhlar uchun ovqatlanishning maqbul me'yorlarini ko'rsatishi;

- autsorsing usulida sog'lom ovqatlantirish xizmatlari uchun ustamaning maksimal miqdori — ko'rsatilgan xizmatlar qiymatiga nisbatan 20 foizdan oshib ketmasligi;

- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida autsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tuman (shahar) hokimligi tomonidan tasdiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari narxlari doirasida amalga oshirishi;

- taklif qilinayotgan investitsiya mablag'larining miqdori har bir lot uchun bazaviy hisoblash miqdorining Toshkent shahri, viloyatlar markazlari uchun 1000 (bir ming), viloyat hududidagi shaharlar, tumanlar markazlari uchun 500 (besh yuz), qishloq va ovullar uchun 250 (ikki yuz ellik) baravaridan kam bo'lmasligi belgilab qo'yildi.

Autsorsingning davlat sektorida joriy etishning asoslaridan biri sifatida autsorsing juda rivojlangan mamlakatlarning tajribasiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bunday mamlakatlarga anglo-saksoniya mamlakatlari (Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya), skandinaviya mamlakatlari (Shvesiya, Daniya, Finlyandiya) uzoq sharq mamlakatlari (Singapur, Gonkong, Janubiy Koreya) kiradi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim agentligi bugungi kunda bolalar salomatligi xavfsizligini oshirish bo'yicha ishlarni amalga oshirishda davom etmoqda. Ovqatdan zaharlanish holatlari tahlili natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining sanitariya normalariga rioya etish yuzasidan bilimini oshirish va mas'uliyatini kuchaytirish zarurati mavjudligi aniqlanib tegishli tartibda chora-tadbirlar amalga oshirib borilmoqda. Chunki tarbiyalanuvchining ovqatdan zaharlanishi bu-millatning majruhlanishi bilan barobardir. Shu sababdan hududlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining barcha xodimlari sanitariya minimumi kurslarida gigiena bo'yicha ta'lim olishmoqda.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON,2024

tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 2019 yil 8 may PQ-4312 sonli qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagи 391-sон “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori
3. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 25 iyuldagи «Davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi 626-sон qarori.
4. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundagi «Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo‘srimcha chora-tadbirlarito‘g‘risida»gi 407-sон qarori.